

## HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA TOVUSH VA HARFLAR TUSHUNCHASI

*Qodirberganova Sevinch Rashid qizi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Gumanitar fanlar fakulteti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
1-bosqich 24/1-guruh talabasi  
[Sevinchqodirberganova612@gmail.com](mailto:Sevinchqodirberganova612@gmail.com)*

*Tel: +998886505006  
Ilmiy rahbar: Muxtorova Shahnoza*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida tovush va harflar tushunchasi fonetik hamda grafik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tovushlarning tabiatи, fonemik funksiyasi va yozuvdagи ifodasi — harflar bilan bog'liqligi izohlanadi. Shuningdek, ularning adabiy til me'yirlari va til madaniyatidagi ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** tovush, harf, fonema, fonetika, grafika, talaffuz, imlo, adabiy til.

**Аннотация:** В данной статье анализируются понятия звука и буквы в современном узбекском литературном языке с фонетической и графической точек зрения. Объясняется природа звуков, их фонемная функция и связь с буквенным выражением на письме. Также освещается их значение в нормах литературного языка и культуре речи.

**Ключевые слова:** звук, буква, фонема, фонетика, графика, произношение, орфография, литературный язык.

**Annotation:** This article analyzes the concepts of sound and letter in the modern Uzbek literary language from phonetic and graphic perspectives. It explains the nature of sounds, their phonemic function, and their representation in writing through letters. The article also highlights their significance in literary language norms and speech culture.

**Keywords:** sound, letter, phoneme, phonetics, graphics, pronunciation, spelling, literary language.

Til — inson tafakkurining ko'zgusi, jamiyatning madaniy darajasini ifoda etuvchi asosiy vositadir. Har qanday til, avvalo, tovushlardan tashkil topadi. Tovushlar inson nutqining og'zaki shaklida, harflar esa yozma shaklida ifoda vositasi hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida tovush va harflar muhim fonetik va grafik birliklar sifatida tilshunoslikda alohida o'rganiladi. Bu ikki tushuncha til madaniyatining asosi bo'lib, og'zaki va yozma nutqning asosiy tarkibiy qismlaridir.

Tovush — bu nutq a'zolari ishtirokida hosil bo'ladigan eng kichik fonetik birlikdir. O'zbek tilida tovushlar unli va undoshlarga bo'linadi. Unli tovushlar havo oqimining og'iz bo'shlig'idan to'siqsiz chiqishi natijasida, undosh tovushlar esa to'siq orqali hosil bo'ladi. O'zbek tilida 6 ta unli va 23 ta undosh tovush mavjud. Tovushlarning eng muhim xususiyatlaridan biri — ma'no farqlovchi fonema vazifasini bajarishidir. Masalan, "kul" va "gul" so'zлari orasidagi [k] va [g] tovushlari butunlay boshqa ma'noni anglatadi. Demak, fonema — bu tildagi ma'no ajratuvchi fonetik birlikdir. Fonemik tahlil tilshunoslikning fonologiya sohasida alohida o'rganiladi.

Harf — tovushning yozuvdagagi grafik belgisidir. Hozirgi o'zbek alifbosi lotin yozuvi asosida bo'lib, tovushlarni ifodalashga xizmat qiladi. Harflar tovushlar soniga mutanosib bo'lsa-da, ba'zi tovushlar bitta emas, bir nechta harf bilan ifodalanadi: masalan, "sh", "ch", "ng". Ayniqsa, o'zbek tilida ba'zi tovushlar, masalan, "o", "g" alohida harf sifatida ifodalanadi, biroq ular kompyuterda yozishda yoki talaffuzda chalkashlik tug'dirishi mumkin. Harflarning noto'g'ri ishlatalishi esa imlo xatolariga olib keladi. Misol: "o'g'il" (farzand) va "og'il" (sigirxon) so'zлari.

Tovush — og'zaki, harf esa yozma ifodadir. Masalan, "sh" tovushi faqat bitta tovush bo'lsa-da, u yozuvda ikki harf bilan ifodalanadi. Shu sababli bu ikki tushunchani aralashtirmaslik kerak. Tilshunoslikda bu farq fonetika va grafika fanlari orqali o'rganiladi.

Adabiy tilning muhim mezonlaridan biri — talaffuz (fonetik) va yozuv (grafik) me'yorlariga rioya qilishdir. Tovushlar noto'g'ri talaffuz qilinsa, so'zning ma'nosi o'zgaradi yoki muloqotda tushunmovchilik yuzaga keladi. Shuningdek, yozuvdagagi xatoliklar — savodxonlik darajasini pasaytiradi. Masalan, "yo'l" so'zining "yol" tarzida noto'g'ri aytilishi yoki yozilishi — muloqotda xatoga sabab bo'ladi. Shu bois, fonetik va grafik me'yorlarga amal qilish — til madaniyatining ajralmas qismidir. Fonema — bu so'zlardagi ma'no farqlovchi fonetik birlikdir. Masalan, "tol" va "pol" so'zlaridagi [t] va [p] tovushlari butunlay boshqa ma'no hosil qiladi. O'zbek tilidagi fonemalar soni va ularning tizimda tutgan o'rni fonologiya fanining muhim tahlil obyekti hisoblanadi. Fonemik analiz orqali tovushlar tizimlashtiriladi, so'zlarda qanday fonemalar qatnashgani aniqlanadi. Bu, ayniqsa, kompyuter lingvistikasi, sun'iy intellektga asoslangan ovozli tizimlar yaratishda juda muhim hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek alifbosi lotin grafikasi asosida bo'lib, 1993-yildan rasmiy tus olgan. Bu grafik tizimning joriy etilishi yozuvda fonetikaga yaqinlikni ta'minlash, talaffuz va yozuvdagagi farqni kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan. Shunga qaramay, ba'zi harflar (masalan: "o", "g", "sh", "ch") yozuvda ikki belidan iborat bo'lib, bu kompyuter texnologiyalari va matn terishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Hozirda bu borada yangi grafik yondashuvlar, islohotlar ustida ish olib borilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo‘rayev N.N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
2. Mamatov N., To‘xtaboyeva M. O‘zbek tili fonetikasi. — Toshkent: Fan, 2010.
3. Madvaliyeva N. Fonetik tahlil asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2015.
4. Hasanboy Jamolxonov. O‘zbek adabiy tili. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
5. <https://lex.uz/docs/97676>
6. <https://muhaz.org/mavzu-tovushlar-va-harflar.html>
7. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Harf-tovush\\_yozushi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Harf-tovush_yozushi)
8. <https://ilmiybaza.uz/document/til-va-yozuv-harf-tovush-yozushi/>